




JIZZAX VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI

# JIZZAX VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI



**2023- YIL YANVAR-FEVRAL**

*Dastlabki ma'lumotlar*

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.

**2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar  
sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona  
va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

**12,4  
ming birlik**



**Xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**

**59,9 %**



**Xizmatlar sohasidagi  
korxona va tashkilotlarning  
ulushi**

**92,5 %**



**O'tgan yilning mos  
davriga nisbatan  
o'sish sur'ati**

2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soni **20,7** ming birlikni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida **12,4** ming birlik korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ularning umumiyligi sonining **59,9 %** ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **92,5 %** ni tashkil etgan.

**Xizmatlar sohasida jami faoliyat  
ko'rsatayotgan korxonalar  
(1-mart holatiga ko'ra, ming birlikda)**



**2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari umumiylar sonidan (17,5 ming birlik) 9,3 ming birligi xizmat ko'rsatish sohasiga jalb qilingan.** Ularning xizmatlar sohasiga oid faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiylar sonidagi ulushi **75,0 %** ni tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yirik tashkilotlarning ulushi esa **25,0 %** ni (3,1 ming birlik) tashkil etdi.


**Taqqoslash uchun:**

**2019- yil 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 59,3 % ni, ya'ni 9,0 ming birlikni tashkil etgan.** O'tgan yilning mos davriga nisbatan ularning o'sish sur'ati **115,8 %** ni tashkil etgan.

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan**

**kichik tadbirkorlik subyektlari**


*(1-mart holatiga ko'ra, ming birlikda)*



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

### Jizzax viloyati bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-fevral)<sup>1)</sup>



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023- yilning yanvar-fevral oylarida bozor xizmatlari hajmi 1 327,7 mlrd. so'mga yetdi. 2022-yilning yanvar-fevral oylariga (114,5 %) nisbatan o'sish sur'ati 102,7 % ni tashkil etgan.**

<sup>1)</sup> Bu va bundan keyingi ko'rsatkichlar metodologiyaga muvofiq har bir keyingi yil qayta ko'rib chiqilgan

**Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari  
(2023- yil yanvar–fevral)**

|                               | Hajmi,<br><i>mldr.<br/>so'mda</i> | Ulushi,<br><i>% da</i> | O'sish<br>sur'ati,<br><i>% da</i> |
|-------------------------------|-----------------------------------|------------------------|-----------------------------------|
| Jizzax viloyati <sup>1)</sup> | 1 327,7                           | 100,0                  | 102,7                             |
| Jizzax shahri                 | 535,1                             | 40,3                   | 97,7                              |
| Arnasoy                       | 26,1                              | 2,0                    | 110,6                             |
| Baxmal                        | 80,9                              | 6,1                    | 105,1                             |
| G'allaorol                    | 117,0                             | 8,8                    | 110,4                             |
| Sharof Rashidov               | 183,9                             | 13,9                   | 105,8                             |
| Do'stlik                      | 48,2                              | 3,6                    | 109,9                             |
| Zomin                         | 111,0                             | 8,4                    | 108,8                             |
| Zarbdor                       | 50,1                              | 3,8                    | 108,4                             |
| Zafarobod                     | 23,2                              | 1,7                    | 105,3                             |
| Mirzacho'l                    | 38,8                              | 2,9                    | 94,0                              |
| Paxtakor                      | 44,1                              | 3,3                    | 107,9                             |
| Forish                        | 58,4                              | 4,4                    | 105,7                             |
| Yangiobod                     | 10,9                              | 0,8                    | 83,0                              |

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-fevral)



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, ming so'mda    ● O'sish sur'ati, % da

**2023- yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 909,7 ming so'mga yetdi. 2022-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,4 % ni tashkil etgan.**

## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023-yil yanvar-fevral)

|                        | Hajmi,<br>ming. so'mda | O'sish sur'ati,<br>% da |
|------------------------|------------------------|-------------------------|
| <b>Jizzax viloyati</b> | <b>909,7</b>           | <b>100,4</b>            |
| Jizzax shahri          | 2 827,0                | 95,3                    |
| Arnasoy                | 547,6                  | 108,8                   |
| Baxmal                 | 490,8                  | 102,8                   |
| G'allaorol             | 646,4                  | 108,0                   |
| Sharof Rashidov        | 786,7                  | 102,9                   |
| Do'stlik               | 706,0                  | 108,0                   |
| Zomin                  | 640,3                  | 106,2                   |
| Zarbdor                | 547,7                  | 105,8                   |
| Zafarobod              | 444,5                  | 103,3                   |
| Mirzacho'l             | 718,8                  | 92,4                    |
| Paxtakor               | 561,9                  | 105,4                   |
| Forish                 | 607,4                  | 104,1                   |
| Yangiobod              | 375,0                  | 81,8                    |

Kichik tadbirkorlik sektori iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, yangi ish o'rinalarini yaratishga, daromadlarni oshirishga va aholi farovonligini ta'minlashga yordam beradi.


### Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (yanvar-fevral oylarida)

**2019- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 2023- yil yanvar-fevral oylarida** kichik tadbirkorlikning hajmi **402,2** mlrd. so'mga oshib, **787,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik tadbirkorlik umumiy hajmining **38,3** % i yoki **204,9** mlrd. so'mni Jizzax shahri egallaydi.


### Xizmatlar sohasida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi (2023- yil yanvar-fevral oylarida)



■ Kichik korxona va mikrofirmalar

**2023- yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida moliyaviy xizmatlarning ulushi **29,0** % ni tashkil etdi.** Shu bilan bir qatorda, savdo xizmatlari **27,6** %, transport xizmatlari **14,9** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **5,7** %, ta'lif xizmatlari **3,9** % darajasida qayd etildi. Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning ulushi **1,4** % darajasida qayd etildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-fevral)



**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-fevral oylarida bozor xizmatlarining umumi hajmidagi savdo xizmatlari **33,6** % ni, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlili sohasidagi xizmatlar esa **1,5** % ni tashkil etgan.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-fevral)

|  | Hajmi,<br>mlrd. so'mda | Ulushi,<br>% da | O'sish<br>sur'ati,<br>% da |
|--|------------------------|-----------------|----------------------------|
| <b>Xizmatlar – jami</b>  | <b>1 327,7</b>         | <b>100,0</b>    | <b>102,7</b>               |
| <i>shu jumladan:</i>   |                        |                 |                            |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari  | 75,4                   | 5,7             | 124,0                      |
| Moliyaviy xizmatlar  | 384,7                  | 29,0            | 111,1                      |
| Transport xizmatlari   | 198,2                  | 14,9            | 101,4                      |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>  | 193,8                  | 14,6            | 98,8                       |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari  | 41,6                   | 3,1             | 94,5                       |
| Savdo xizmatlari   | 366,7                  | 27,6            | 95,3                       |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar  | 24,1                   | 1,8             | 100,3                      |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar  | 52,3                   | 3,9             | 94,3                       |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar   | 24,6                   | 1,9             | 98,0                       |
| Ijara xizmatlari   | 23,6                   | 1,8             | 95,7                       |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar                          | 35,8                   | 2,7             | 100,3                      |
| Shaxsiy xizmatlar  | 40,3                   | 3,0             | 102,0                      |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 18,1                   | 1,4             | 105,9                      |
| Boshqa xizmatlar   | 42,3                   | 3,2             | 103,4                      |

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### Moliyaviy xizmatlar (yanvar-fevral)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **74,8** mlrd. so'mga oshib, **384,7** mlrd. so'mga yetdi. Umumiylajmi hajmida ushbu xizmatlarning ulushi **29,0** % ni tashkil etdi. Umumiylajmi moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **111,1** % ni tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi


(2023- yil yanvar-fevral)

**2023- yilning yanvar-fevral oylarida** moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **95,5** % ni tashkil etdi.

Sug'urta  
bo'yicha  
xizmatlar

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti  
bo'yicha xizmatlardan tashqari  
moliyaviy xizmatlar**


**Yordamchi  
moliyaviy  
faoliyat**




**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**2023- yilning 1-mart** holatiga ko'ra, tashish va saqlash bilan bog'liq faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **471** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **3,8 %** ini tashkil etdi. Ulardan **469** birlik (**99,6 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

**2023- yil yanvar-fevral oylarida** transport xizmatlari hajmi **198,2** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022- yilning yanvar oyiga** nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **101,4 %** ni tashkil etdi.




**Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi**  
(2023- yil yanvar-fevral)



**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**2022- yilning yanvar-fevral oylarida** avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **91,5 mlrd. so'mga** yetdi.

### Avtomobil transporti xizmatlari (yanvar-fevral)




2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.  
■ Hajmi, mlrd. so'm    ↔ O'sish sur'ati, % da

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **56,3 %**.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-fevral oylarida ushbu ko'rsatkich **56,3 %** ni tashkil etgan.

**2022- yil yanvar-fevral oylariga** nisbatan ushbu xizmatlar hajmining **1,2 %** ga pasayganligi qayd etildi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **14,6 %ni** tashkil etdi.

### Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi




**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiyligi sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**2023- yilning 1- fevral** holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning ulushi (**44,3 %** yoki **5 515** birlik) yetakchilik qilmoqda. Ulardan **99,8 %** ini (**5 504** birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etadi.

**2019- yilning yanvar oyiga nisbatan 2023- yil yanvar-fevral oylarida** savdo xizmatlari hajmi **175,7** mlrd. so'mga oshib, **366,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan** ushbu turdagи xizmatlar hajmining **4,7 %** ga pasayishi qayd etildi.



**2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.**  
■ Hajmi, mlrd. so'mda    ● O'sish sur'ati, % da

Savdo xizmatlarining umumiyligi hajmida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlarining ulushi **83,4 %** ni tashkil etdi.

S  
a  
v  
d  
o  
  
x  
i  
z  
m  
a  
t  
l  
a  
r  
i

**Savdo xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-fevral oylarida)**

Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

**83,4 %**

Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlari

**9,7 %**

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar

**6,9 %**

**Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-fevral , % da)**

|                        | <i>Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar</i> | <i>Ulgurji savdo xizmatlari</i> | <i>Chakana savdo xizmatlari</i> |
|------------------------|---|---------------------------------|---------------------------------|
| <b>Jizzax viloyati</b> | <b>6,9</b>  | <b>9,7</b>                      | <b>83,4</b>                     |
| Jizzax sh.             | 13,2  | 18,6                            | 68,2                            |
| Arnasoy                | 5,5   | 14,0                            | 80,5                            |
| Baxmal                 | 7,2   | 6,5                             | 86,3                            |
| G'allaorol             | 3,9   | 2,3                             | 93,8                            |
| Sharof Rashidov        | 7,3   | 8,5                             | 84,2                            |
| Do'stlik               | 6,7   | 19,0                            | 74,3                            |
| Zomin                  | 4,6   | 8,1                             | 87,3                            |
| Zarbdor                | 1,9   | 3,8                             | 94,3                            |
| Zafarobod              | 4,5   | 4,5                             | 91,0                            |
| Mirzacho'l             | 2,1   | 12,9                            | 85,0                            |
| Paxtakor               | 6,0   | 5,0                             | 89,0                            |
| Forish                 | 3,6   | 2,3                             | 94,1                            |
| Yangiobod              | 6,8   | 3,1                             | 90,1                            |

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**2023-** yilning 1- mart holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar soni **233** birlikka yetdi, shundan **216** birligi kichik tadbirkorlik subyektlari bo'lib hisoblanadi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (yanvar-fevral)




**2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.**

■ Hajmi,mldr. so'mda <•> O'sish sur'ati, % da

**2023- yilning yanvar-fevral oylarida** aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **75,4** mldr. so'mdan iborat bo'lib, **2022- yilning yanvar-fevraliga** nisbatan o'sish sur'ati **124,0** %ni tashkil etdi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-fevral oylarida)



## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-fevral)

|                                     | Hajmi,<br>mlrd. so'mda | Ulushi,<br>% da | O'sish<br>sur'ati,<br>% da |
|-------------------------------------|------------------------|-----------------|----------------------------|
| <b>Jizzax viloyati<sup>1)</sup></b> | <b>75,4</b>            | <b>100,0</b>    | <b>124,0</b>               |
| Jizzax sh.                          | 11,7                   | 15,5            | 140,4                      |
| Arnasoy                             | 2,2                    | 2,8             | 126,4                      |
| Baxmal                              | 7,0                    | 9,3             | 124,8                      |
| G'allaorol                          | 7,9                    | 10,4            | 123,9                      |
| Sharof Rashidov                     | 10,2                   | 13,6            | 122,3                      |
| Do'stlik                            | 3,0                    | 3,9             | 123,1                      |
| Zomin                               | 7,3                    | 9,7             | 123,8                      |
| Zarbdor                             | 3,9                    | 5,2             | 123,9                      |
| Zafarobod                           | 2,2                    | 3,0             | 123,3                      |
| Mirzacho'l                          | 2,3                    | 3,1             | 123,0                      |
| Paxtakor                            | 3,6                    | 4,8             | 122,9                      |
| Forish                              | 12,8                   | 17,0            | 113,4                      |
| Yangiobod                           | 1,3                    | 1,7             | 122,4                      |

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**2019- yilning yanvar oyiga** nisbatan Jizzax shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **3,0** mlrd. so'mga oshib, ko'rib chiqilayotgan davrda **11,7** mlrd. so'mga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **15,5 %** ni tashkil etdi.

Yangiobod tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **1,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Telekommunikatsiya xizmatlari** bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

### Telekommunikatsiya xizmatlari (yanvar-fevral)

2023- yiling yanvar-fevral oylarida


telekommunikatsiya xizmatlari hajmi 65,3 mld. so'mni tashkil etdi. Ko'rsa-tilgan bozor xizmatlari-ning umumiy hajmida ularning ulushi 4,9 % ni tashkil etgan.



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.  
■Hajmi, mld. so'mda ←•→O'sish sur'ati, % da

### Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi

(2023- yil yanvar-fevral, mld. so'mda)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog’i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta’limni va turli kasblarga o’rgatishni o’z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta’lim, shuningdek, kattalar uchun ta’lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta’lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o’xshash boshqalar kiradi.

**Ta’lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o’qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko’rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

**Ta’lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-fevral)**



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, mlrd. so‘mda      ● O’sish sur’ati, % da

**2023- yil yanvar-fevral oylarida** ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi **52,3** mlrd. so‘mga yetdi. **2022- yil yanvar-fevral oylariga** nisbatan ushbu xizmatlar hajmining **5,7** % ga pasayganligi qayd etildi.

Ta’lim sohasidagi xizmatlarning umumiylajmida oliy ta’lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yilning yanvar-fevral oylarida** ularning ulushi **73,5** % ni tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu - sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **335** birlikni tashkil etdi, shundan **252** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.**

### Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-fevral)



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, mlrd. so'mda    ● O'sish sur'ati, % da

**2023- yil yanvar-fevral oylarida** sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **24,6** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmining **1,9 %**ini tashkil etdi.

### Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-fevral , mlrd. so'mda)




**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.


**2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra**, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **1 243** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 239** birlik kichik biznes subyektlaridir.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-fevral)

**2019- yil yanvar oyiga nisbatan 2023- yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi** **24,5** mlrd. so'mga oshib, **41,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-fevral)



**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda** ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijara olingan ko'chmas mulkni ijara berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

### Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (yanvar-fevral)



2023- yilning yanvar-fevral oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi

24,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.


**2023- yilning yanvar-fevral**

**2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.** oylariga nisbatan o'sish

■ Hajmi, mlrd. so'mda => O'sish sur'ati, % dasur'ati 100,3 %ni tashkil etdi.

### Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi


(2023- yil yanvar-fevral , mlrd. so'mda)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

### Ijara xizmatlari (yanvar-fevral)



**2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.**

— Hajmi,mld. so'mda    — O'sish sur'ati, % da

**2019- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan ijara xizmatlari hajmi 1,0 mld. so'mga oshib, 2023- yil yanvar-fevral oylarida 23,6 mld. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiylajmida ularning ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.**

Ushbu xizmatlarning umumiylajmida **2023- yil yanvar-fevral oylarida** avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **67,2 %** ni tashkil etdi.

Viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining to'lov qobiliyati va imtiyozlarining oshishiga, shuningdek, iste'molchilarining, ayniqsa AKTdan foydalangan holda zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.



**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**  
**Tel.: 72-222-79-76**